

O‘zbekiston Respublikasi
Odil sudlov akademiyasi Kengashining
2026-yil 28-iyuldagi qarori bilan
TASDIQLANGAN

**O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi (keyingi o‘rinlarda – Akademiya) huzuridagi Jamoatchilik kengashining (keyingi o‘rinlarda – Jamoatchilik kengashi) asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Jamoatchilik kengashi o‘z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.

3. Jamoatchilik kengashi Akademiya rektorining buyrug‘i bilan tashkil etiladi. Jamoatchilik kengashi tarkibini tasdiqlash va o‘zgartirish kiritish O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Kengashi qarori bilan amalga oshiriladi.

4. Jamoatchilik kengashining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

5. Jamoatchilik kengashi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

**2-bob. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari, funksiyalari,
huquqlari va majburiyatlari**

6. Quyidagilar jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Akademiya faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudya va sud apparati xodimlarining malakasini oshirish, rahbarlik lavozimlarini egallash uchun zaxirada bo‘lgan sudyalarni qayta tayyorlash, magistraturada o‘qitishni tashkil etish hamda ta’lim oluvchilarda sudyalik kasbiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;

o‘quv dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha ekspert xulosalarini tayyorlash;

ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Akademianing xalqaro hamkorligini rivojlantirishga ko‘maklashish;

Akademiya faoliyati yuzasidan jamoatchilik fikrini o'rganish;
ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
fuqarolik jamiyati institutlari, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Akademiyaning nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun Akademiyaning fuqarolar bilan bog'lab turadigan "ko'prik" rolini bajarish;

Akademiya faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi dasturlar va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o'tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

Akademiya faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Akademiyaning rasmiy veb-saytida jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni joylashtirib borish hamda ularning har chorakda yangilanib borilishini ta'minlash.

7. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Akademiyaning faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda murojaatlarini ko'rib chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, ularni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Akademiyaga tegishli takliflar kiritadi;

Akademiyaning nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorligini tahlil qiladi, shuningdek, hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

Akademiya faoliyatiga taalluqli uning normativ-huquqiy hujjatlari va qarorlarini takomillashtirish, ulardagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, shuningdek, kiritilgan takliflarni mazkur Akademiya xodimlari o'rtasida muhokama qilishga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etishda qatnashadi;

davlat dasturlari loyihalarini, tadbirlar rejalarini va Akademiya faoliyatiga taalluqli, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi boshqa hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlaydi, qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolatlari doirasida ishtirok etadi, bajarilgan ishlarning samaradorligini tahlil qiladi, shuningdek, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

mamlakatda va xorijda keng jamoatchilikni Akademiya faoliyatini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar haqida muntazam ravishda xabardor qilishni ta'minlaydi hamda mavjud muammolarni hal qilish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

Akademiya faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etishda ishtirok etadi;

Akademiya faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha bajarilayotgan ishlarning natijalarini tahlil qiladi, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi.

8. Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

Akademiya tomonidan tashkil etiladigan bo'lajak ochiq hay'at majlislari va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda ishtirok etish;

Akademiya, uning tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga jamoatchilik kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

Akademiya faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan Akademiyaning axborotlari, statistika va boshqa materiallarini belgilangan tartibda olish;

jamoatchilik kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish.

9. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda quyidagi majburiyatlarga ega:

jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilishi;

Akademiya faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlarga amal qilishi;

Akademiya va uning mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun yoki Akademiyaning ichki tartibi qoidalariga muvofiq cheklangan bo'lsa, maxfiylikka rioya qilishi shart.

3-bob. Jamoatchilik kengashining tarkibini shakllantirish va ishini tashkil etish tartibi

10. Jamoatchilik kengashining tarkibiga uning raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va a‘zolari kiradi.

11. Jamoatchilik kengashi a‘zoriga, qoida tariqasida, Akademiyada namunali xizmat ko‘rsatgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyati sohalarida katta amaliy tajribaga ega obro‘-e‘tiborli fuqarolar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari qabul qilinadi.

Jamoatchilik kengashi 16 nafar a‘zoldan iborat tarkibda faoliyat yuritadi.

12. Jamoatchilik kengashining tarkibi har 3 yilda Akademiya rektori tomonidan tasdiqlanadi.

Jamoatchilik kengashi zaruratga ko‘ra Akademiya rektorining buyrug‘i bilan tarqatib yuborilishi mumkin. Bunda Jamoatchilik kengashining vakolatlari tugatiladi hamda belgilangan tartibda yangi tarkib shakllantiriladi.

13. Quyidagi holatlarda jamoatchilik kengashining raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va a‘zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

ular tomonidan jamoatchilik kengashi tarkibidan chiqish to‘g‘risida ariza berilganda;

jamoatchilik kengashining majlislarida muntazam ravishda ishtirok etmaganda, mazkur Nizomning 10-bandida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda; vafot etganda, shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topilganda.

14. Jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a‘zolari haqidagi ma‘lumotlar, shuningdek, ularning aloqa ma‘lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari) va ularga kiritilgan o‘zgartirishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab 5 kun ichida Akademiyaning rasmiy veb-saytida e‘lon qilinishi shart.

15. Jamoatchilik kengashining raisi:

jamoatchilik kengashining faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

jamoatchilik kengashining majlislarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi;

jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

jamoatchilik kengashining ish rejasini, majlisi bayonnomasini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;

jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qiladi;

jamoatchilik kengashi a‘zolarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarilishini muvofiqlashtiradi;

Akademiyaning rasmiy veb-saytida va boshqa resurslarda joylashtiriladigan jamoatchilik kengashining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar tarkibi bo'yicha takliflar kiritadi va uni Akademiya rektori bilan kelishadi;

jamoatchilik kengashi qarorlarini bajarish masalalari yuzasidan Akademiya rektori bilan hamkorlik qiladi;

jamoatchilik kengashining samarali ishini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

16. Jamoatchilik kengashining raisi bo'lmagan taqdirda, uning vakolatlari va majburiyatlarini rais o'rinbosari bajaradi.

17. Jamoatchilik kengashi raisining o'rinbosari:

jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

jamoatchilik kengashining samarali ishlarini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

18. Jamoatchilik kengashining kotibi:

jamoatchilik kengashining faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

jamoatchilik kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, Akademiya xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

kun tartibiga muvofiq jamoatchilik kengashi majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

jamoatchilik kengashi o'tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini jamoatchilik kengashining raisi bilan kelishadi;

jamoatchilik kengashining a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni jamoatchilik kengashi majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

jamoatchilik kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring olib boradi va uning natijalarini jamoatchilik kengashi majlisida ko'rib chiqish bo'yicha takliflar kiritadi;

jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning jamoatchilik kengashi a'zolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi;

jamoatchilik kengashining samarali ishlashini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

19. Jamoatchilik kengashining a'zolari o'z majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal qilishda o'z vakolatini boshqalarga o'tkazish huquqiga ega emas.

Jamoatchilik kengashining majlisida ishtirok etish imkoni bo'lmagan holatlarda, uning a'zosi majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini yozma

shaklda yuborishi mumkin. Bunda uning fikri majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

20. Jamoatchilik kengashining a'zolari:

o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Akademiya tomonidan tashkil etiladigan hay'at majlislarida va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etadi; jamoatchilik kengashi ish rejalarining loyihalarini tayyorlaydi, ularni jamoatchilik kengashida ko'rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejalari bajarilishini ta'minlaydi;

Akademiya faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

jamoatchilik kengashining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar tayyorlaydi.

21. Jamoatchilik kengashi faoliyatining asosiy masalalari uning majlisida ko'rib chiqiladi. Jamoatchilik kengashining majlisi uning ish rejalari asosida har chorakda kamida bir marta chaqiriladi.

Jamoatchilik kengashining raisi jamoatchilik kengashi a'zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisini chaqirishi mumkin.

Jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar Akademiyaning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi shart.

22. Jamoatchilik kengashining majlislariga boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari taklif etilishi mumkin.

23. Jamoatchilik kengashi majlisi kun tartibining loyihasi kotib tomonidan jamoatchilik kengashi a'zolarining takliflari va jamoatchilik kengashi raisining topshirig'i asosida shakllantiriladi.

24. Jamoatchilik kengashining majlisini uning raisi olib boradi. Rais ishtirok eta olmagan holatlarda, majlisni uning o'rinbosari olib boradi. Akademiya rektori, prorektorlari va boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

25. Jamoatchilik kengashining majlisi, agar unda jamoatchilik kengashi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda (kvorumga ega) vakolatli hisoblanadi.

Majlisni o'tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, jamoatchilik kengashining yangi majlisi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi.

26. Jamoatchilik kengashining qarori majlisda ishtirok etayotgan jamoatchilik kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

27. Jamoatchilik kengashining har bir a'zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Uning fikri jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo'shib qo'yiladi.

28. Jamoatchilik kengashining majlisida qabul qilingan qaror bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda Akademiya, jamoatchilik kengashi a'zolariga yuboriladi.

29. Jamoatchilik kengashining qarorini tezlik bilan qabul qilish zaruriyati tug'ilganda, uning raisi tashabbusi bilan qaror jamoatchilik kengashining a'zolari bilan kelishilgan holda so'rov yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

30. Jamoatchilik kengashining kotibi kengash a'zolari ko'magida jamoatchilik kengashi qarorlari ijrosining borishini o'rganadi va ko'rib chiqadi, zarur bo'lgan hollarda, jamoatchilik kengashining raisiga tegishli takliflar kiritadi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

31. Jamoatchilik kengashining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash Akademiya tomonidan amalga oshiriladi.

32. Jamoatchilik kengashining faoliyati ushbu Nizomiga va qonunchilikka muvofiq ekanligi Akademiya rektori tomonidan nazorat qilinadi.

33. Mazkur Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha nizoli holatlar Akademiya Ustavi, ichki meyoriy hujjatlar va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

34. Nizom Akademiya Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi.

35. Mazkur Nizomga Akademiya Kengashining qaroriga muvofiq qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.